

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA INSONPARVARLIK FAZILATLARINING TARANNUM ETILISHI

Ergasheva Muxlisa Abdulla qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharq mutafakkirlarining asarlari orqali yosh avlodni tarbiyalashda insonparvarlik, inson qadri, erkinligi va bugungi hayotimiz bilan tarixning uzviy bog ‘liqliligi asarlarning asl mohiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Insonparvarlik, iymon, e’tiqod, Qur'on, hadis, qadr, tafakkur, ma’naviyat, diniybag‘rikenglik, millatlar aro totuvlik, sharqona tarbiya.

Bugungi globallashuv jarayonida yoshlarimizni har tomonlama yangi

O‘zbekiston sharoitida barkamol, komil qilib tarbiyalash, sog‘lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratib berish, keng mushohadali yoshlarni tarbiyalashda aynan inson Muqaddas Islom dinimizda insonparvarlik huquqlari va vazifalari ochiq-oydin bayon qilingan va ma’naviy-marifiy jihatdan hadislар orqali boyitilgan. Mehr-shavqatli bo‘lish, insonlar, atrofdagilar bilan qilayotgan yaxshi va yomon munosabatlarimiz, otanonamiz va jigarlarimizga bo‘lgan ijobjiy-salbiy muomalamiz barchasi Muqaddas kitobimiz Qur'on kitobida yozilgan. Bugun tarixiy davrning yangi bosqichi – xalqimiz o‘z oldiga ezgu maqsadlar qo‘yib, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayangan holda, og‘ir va sinovli kunlarda ham hamjihatlik ila taraqqiyot sari odimlab borayotgan pallada yashayapmiz. Islom dini mohiyatida mujassam bo‘lgan barcha fazilatlar asrlar osha bashariyatni hidoyatga chorlab kelmoqda. Ayniqsa, muborak dinimizning ezbilik, xayru saxovat, mehr-oqibat, muruvvat kabi oljanob g‘oyalari jamiyatda insonparvarlik, bag‘rikenglik muhiti mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Tarixdan ma'lumki, xalqimiz ko‘p sinov va qiyinchiliklarni matonat bilan engib o‘tgan. Ota-bobolarimiz azaldan og‘ir kunlarda ahil va hamjihat bo‘lgan. Har bir qarori, harakatida mo‘tabar manbalar, sog‘lom aqlga tayangan. Sharq mutafakkirlari, xususan, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom asarlarida makon va zamon ta’limoti, ilmiylik nazariyasi, insoniylik burchlar, iliqlik munosabatlari va insonparvarlikning asosiy xislatlari bo‘lgan: mehnat, halollik, mehr, muhabbat, shirinso‘zlik madh etilgan. Forobi insonlarning inoq va do‘st yashashi mamlakatda xalqlar uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tin-chlikni qat’iy quvvatlab, faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Navoiy inson taqdiri, xalq manfaa-ti,

mamlakat haqida g‘amxo‘rlikni asosiy masala qilib qo‘ygan. Dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg‘a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. Jahon dinlari, jumladan islom dinida ham Insonparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Unda faqir, kambag‘al, musofir, muhtoj kishilarga yordam berishga, sahovatli va insofli bo‘lishga da’vat qilinadi. Insoniyat qachonki, o ‘zi uchun ma’naviy ozuqa istasa, uni qidirsa o‘z elidan, vatandoshlaridan, xalqining yuragidan, uning orzu-istiklaridan va o‘tmishidan qidirsin. Zero, insonlar bor ekan har onda uni tinimsiz harakatga majbur etadigan kuch ham tirik bo ‘ladi. Xalqning, elning ma’naviyati yuksak qadr-qimmati, ulug‘ tolesi barcha-barchasi buyuk ijodkorlarining, aziz avliyolarning, vatanparvar allomlarning asarlarida, ijod namunalarida o‘z aksini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz ularning buyuk merosi bilan faxrlanishimiz, asrab-avaylashimiz, kelgusi avlodlarga esa ulug‘ meros sifatida yetkazishimiz shart va zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.A.Musurmonova, X.Ibragimova “Umumiyy pedagogika”, darslik. Toshkent.: Yoshlar nashriyoti uyi,2020-yil.
- 2.R.Norqobilova, M.To‘rayeva Importance of talent in child development. Web of Scientist: International Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, VOLUME 3, ISSUE 7, July. 2022 57-61.
3. R.D.Norqobilova, P.Nazarova. "Pedagogical Possibilities of education of young generation at Abu Rayhan Beruni teaching". Web of Sciencentific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 6, June 2022. 1908-1911